

**Xaitov Bahodir Tursunovich**

*O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yurtimizda yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar, ularni har tomonlama yetuk va barkamol insonlar qilib tarbiyalashda davlatimiz yuritayotgan siyosat masalasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Bugungi kunda yoshlarni ta’lim-tarbiysi, huquq va manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining asosini tashkil etadi.*

*Maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim jihatlariga e’tibor qaratilgan. Yoshlarni bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazishlari, ularning iste’dod va iqtidorlarini yuzaga chiqarish hamda ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyash masalasiga to‘xtalib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *yoshlar, yoshlar tarbiysi, vatanparvarlik, strategiya, sadoqat, xalq qahramonlari.*

Vatanparvarlik bugungi O‘zbekistonning ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy taraqqiyotining eng ustuvor tamoyillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ma’naviy merosimiz, jumladan, yurtimizni turli bosqinchilardan himoya qilgan xalq qahramonlarining ibratli yo‘li hamda ularning ko‘rsatgan jasorati mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashda, yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ta’lim va tarbiya, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san’at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo‘lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashini ta’minlash doimiy ustuvor vazifa bo‘lib qoladi” [1-16].

Bugungi global mashuv davrida, barchamiz guvoh bo‘layotganimizdek, dunyo tobora murakkablashib, turli ma’naviy-axloqiy buzg‘unchiliklar, ilgari biz tasavvur ham qilmagan tahdid va xatarlar avj olib bormoqda.

Birinchi Prezidentimiz yoshlar tarbiysi haqida fikr bildirib shunday degan edi: “Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so‘zlarini eslayman. Buyuk ma’rifatparvar bobomizning bu so‘zlari XX asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtida ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi” [4-62].

Shu sababli ham bugungi kunda yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratgan holda, ularning zamonaviy bilim va kasb egasi bo‘lishlari bilan bir qatorda, milliy va

**5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR**

umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash har qachongidan ham muhim sanaladi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida: “Bu borada ko‘p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir”, deb ta’kidlab o’tgan edi [3].

“Farzandlarimizning qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga bolalikdan e’tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko‘plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar yetishib chiqadi” [2-2].

Vatanimizni kelajakdagi istiqbolini belgilovchi 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilinganligi ulkan tarixiy ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, bugungi kunda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi”ning qabul qilinganligi mamlakatimiz taraqqiyoti va ertangi kunining rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Harakatlar strategiyasida eng avvalo, davlat boshqaruvi organlarining quyi bo‘g‘inlari faoliyatini tubdan yaxshilash, ularning xalq bilan muloqot qilishini ta’minalash, bu borada samarali ijtimoiy hamkorlik mexanizmini mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida belgilab qo‘yildi. Bu esa, o‘z navbatida fuqarolarimizni xususan, yosh avlodni ona Vatanga fidoiy va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi deyish mumkin.

Mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o’tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan qator qonun va qarorlar qabul qilindi.

Shuningdek, inson huquqlarini ta’minalash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o’tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yetta ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu Taraqqiyot strategiyasi quyidagi yo‘nalishlardan iborat:

inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash; adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish; ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish; milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;

mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish<sup>16</sup>.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi” da hammasi bo‘lib 100 ta maqsad qamrab olingan bo‘lib, kelajakda ushbu maqsadlarning amalga oshishi mamlakatimiz taraqqiyotida muhim bosqich bo‘lishi shubhasiz.

XXI asrda yoshlar taraqqiyotni ta'minlaydigan, uni amalga oshiradigan yetakchi kuchga aylanib bormoqda. Ularning bilimi, kasbiy malakasi, ruhan va ma'nani barkamollik kabi ijtimoiy sifatlari bugun jamiyatning rivojlanish darajasiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday tendensiyalar yoshlarning alohida ijtimoiy demografik qatlam sifatida siyosatning faol subyektiga aylanib borayotganligini ko'rsatadi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi”ning qator maqsadlarida yoshlarni har taraflama, chuqur bilim olishlari uchun sharoitlar yaratish, ularning iste'dod va qobiliyatlarini yuzaga chiqarish uchun turli to'garaklar tashkil etish, shuningderk, yoshlarni turli zararli, yot g'oyalar ta'siridan saqlash masalalariga alohida urg'u berilgan.

Jumladan: **41-maqsad: Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish.**

Yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko'paytirish, ta'lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2022-2026-yillarda 217 ta “Barkamol avlod” bolalar maktabini rivojlantirish bo'yicha dasturni amalga oshirish.

Yoshlarni san'at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta'minlangan 100 mingdan ortiq bepul to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish belgilangan.

**70-maqsad: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.**

Yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar o'rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog'lom turmush tarzini mustahkamlash.

Yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish.

Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash.

<sup>16</sup> strategy.uz

**5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR**

Yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalardan himoya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

**73-maqсад: *Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish.***

Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini keng targ'ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub 100 ta asarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish.

Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish maqsadida O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi, Islam sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash ko'zda tutilgan.

Yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol insonlar etib tarbiyalash nafaqat bugungi kunda, balki, XX asr boshlarida faoliyat olib borgan jadid adiblarining ham diqqat markazida bo'lib kelgan. "Yoshlar! Ay yigirmadan oshgan birodarlar, sizlar bu fursatlarni g'animat bilib, ilm yo'lig'a yuguring. Vataningiz, bu bekas Vataningizning dardiya davo bo'ladurgon er va olim yigitlar bo'lmoqqa cholishing" [5-107], deb yozadi Hoji Muin.

Shunday ekan yoshlarimiz o'zlariga yaratib berilayotgan imkoniyatlardan foydalangan holda chuqur bilim olib, o'z tanlagan mutaxassisliklarining yetuk bilimdoni bo'lishlari, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga harakat qilmoqlari darkor. Zero mashhur jadidchi bobomiz Hoji Muin ta'kidlaganidek: "bir qavmnning hayot va saodati ilm iladur. Suvsiz baliq tirik qolmagani kabi ilmsiz, ittifoqsiz millatlarning yashay olmasligi tabiiydr" [5-62].

"Biz yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ona yurtga mehri va sadoqatini oshirishga yanada ko'proq ahamiyat berishimiz kerak...

Biz jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, yoshlarimiz ongini buzg'unchi yot g'oyalari bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yaymiz...

Jamiyatimizning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, madaniyat sohasini rivojlantirish, ilmiy-ijodiy tashkilotlar, muhtaram ziyorolarimiz faoliyatini qo'llab-quvvatlash ham biz uchun ustuvor yo'naliishlardan biri bo'ladi. Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalarini dadil ko'tarib chiqqan jaded bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashiva fidoiyligi Yangi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur", deb ta'kidadi muhtaram Prezidentimiz Oliy Majlisga murojaatnomasida<sup>17</sup>.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mintaqamiz va jahon mamlakatlarida sodir

<sup>17</sup> www.president.uz

**5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR**

bo‘layotgan voqeа-hodisalar yoshlarda, ayniqsa harbiy xizmatchilarda milliy g‘urur, jangovar ruh va mafkuraviy immunitet mustahkam bo‘lishini toqazo etmoqda. Harbiy xizmatchilar ongiga mustaqil Vatanimizning yakka-yu yagonaligi, milliy istiqlolni asrab-avaylash, har qanday tashqi tajovuzlarga qarshi mardona kurash olib borish tuyg‘usini singdirish eng dolzarb vazifalardandir.

Yoshlarimizda buyuk tariximizni chuqur o‘rganish, sarkarda bobolarimiz – Spitamen, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Bobur kabilarning jangovar an‘analarini davom ettirish, ularning faoliyatlarini chuqur o‘rganishni targ‘ib etish zarur.

“Harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashni yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda xalqimizning qadimiylarini, buyuk ajdodlarimiz merosi va ularning harbiy san’atni rivojlantirishga qo‘sishgan hissasini chuqur o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Hech shubhasiz, Vatan oldidagi burchini ado etish chog‘ida yurtimiz ozodligi, xalqimizning bugungi tinch va osyishta hayotini ta’minalash yo‘lida halok bo‘lgan mard va jasur o‘g‘lonlarimizning aziz xotirasiga ehtirom ko‘rsatish biz uchun ham farz, ham qarzdir”, deb ta’kidlaydi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev [2-2].

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-tom, –T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi. Xalq so‘zi. 2018-yil, 8-dekabr.
3. Sh.M.Mirziyoyev. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.
4. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat”, 2008.
5. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. –T.: “Ma’naviyat”, 2010.
6. [www.strategy.uz](http://www.strategy.uz)
7. [www.president.uz](http://www.president.uz)